



BOBOMUROD OMONOV, CHAIRMAN OF THE COMMUNIST COLLECTIVE FARM, UNFAIRLY ACCUSED OF THE COTTON CASE

Ergashov Isroil¹

¹ Termez State University, Faculty of History of Uzbekistan, 2nd year Master's student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4898019>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2021
Accepted: 25th May 2021
Online: 30th May 2021

KEY WORDS

Cotton business, command, cotton monoculture, cotton monopoly, Bobomurod Omonov, Ogiloy Omonova, Sharof Rashioy, Sanobar Omonova, Ergash Odinaev, Ddlyan, Ivanov, Bitarov, Omon sultan.

ABSTRACT

During the former Soviet era, there was an attempt to physically oppress and break the spiritually and spiritually mature cadres and leaders of our people, our intelligent ancestors. It is on the basis of this cold idea that our intellectuals have been persecuted three times. The third period is called the "Cotton Case" or the "Case of the Uzbeks" in the mid-1980s. Hundreds of thousands of our ancestors were imprisoned and exiled. They are justified only by the grace of our independence. The following is the story of Bobomurod Omonov, a devoted son of Bobotag, who died in prison on such an innocent charge.

KOMMUNIZM KOLXOZI RAISI BOBOMUROD OMONOVNING „PAXTA ISHI” DA NOHAQ AYBLANISHI

Ergashov Isroil¹

¹ Termiz Davlat Universiteti O'zbekiston tarixi 2-kurs Magistranti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-May 2021
Ma'qullandi: 25-May 2021
Chop etildi: 30-May 2021

KALIT SO'ZLAR

Paxta ishi, buyruqbozlik, paxta monokulturasini, paxta yakkahokimligi, Bobomurod Omonov, O'g'iloy Omonova, Sharof Rashioy, Sanobar Omonova, Ergash odinayev, Ddlyan, Ivanov, Bitarov, Omon sulton.

ANNOTATSIYA

Sobiq sho'rolar zamonida xalqimizning ma'naviy va ruhan yetuk kadr va rahbarlarini, ziyoli ota-bobolarimizni jismoniy jihatdan tazyiq o'tkazib, ularni sindirishga harakat qilib kelindi. Mana shu sovuq g'oya asosida ziyolilarimiz uch marta qanag'on qilinganlar. Uchinchi davr XX asrning 80-yillari o'rtalarida bo'lgan „PAXTA ISHI” yoki „O'ZBEKLAR ISHI” deb nomlanadi. Bunda yuzlab minglab ota-bobolarimiz begunoh qamalib surgun qilinib yuborilgan. Ular faqatgina mustaqilligimiz sharofati ila oqlanganlar. Quyida mana shunday begunoh ayblanib qamoqxonada jon bergan Bobotog' elining jonkuyar farzandi Bobomurod Omonov xususida gap yuritiladi.



Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek mustabid tuzumdan bizga qanday og'ir, qanday nochor meros qolgani, Xalqimiz qanday azob-uqubatlar tortganini hech qachon unutmasligimiz kerak. "Paxta ishi" degan uydirma va bo'xtonlar, Markazdan yuborilgan, o'zini "desantchilar" deb atagan yovuz kuchlarning qonunni, adolatni, xalqimizning sha'ni va g'ururini oyoq osti qilib amalga oshirgan kirdikorlari haqidagi bor haqiqatni to'la ochib berishimiz lozimdir.

Sho'rolar zamonida har bir davrda xalqning fidoyi, jonkuyar va ziyoli kadrlarini xalqimiz safidan jismonan yo'qotish siyosati yurgizilgan. Sovetlar tuzumi davrida qatag'onga uchragan ana shunday jonkuyar va ziyoli kadrlarimizdan biri Bobomurod Omonovdir. U 1917-yil 16-noyabrda oddiy cho'pon Omon Sultonov va Saidabibi oilasida tavallud topgan. U yeti yillik boshlang'ich maktabda tahsil olgan. 1936-yili Buxoro shahrida 6 oylik hisobchilar tayyorlash kursida o'qigan. 1937-yildan Telpakchinor qishloq sovetida kotib va hisobchi vazifasida ishlay boshlaydi. Oradan 2 yil o'tib kolxozda tashkil etilgan zvenoga bosh bo'lib, 12 gektar maydonga paxta yetishtiradi. O'sha yili gektaridan 56 sentenerdan hosil olinadi. Biroq dastlabki mehnat yutug'idan bahramand bo'lish nasib etmagan. Chunki 1937-yil kech kuzida xizmatga jo'nab ketganlar. Lekin harbiy xizmatlari endi tugay deb turganida ikkinchi jahon urushi boshlanib ketadi va urush tugaguniga qadar jang maydonlarida fashist gazandalari bilan jang qiladi. B. Omonov jang maydonlarida ko'rsatgan jasoratlari va xizmatlari uchun 4 ta jangovar orden va ko'plab medallar bilan taqdirlanganlar. Leningrad shahri himoyasida matonat va qahramonlik ko'rsatgani uchun "Qizil Yulduz" ordeni bilan taqdirlanganlar. Rayxstag devorlari yonida general serjant

Bobomurod Omonovga "Qizil Bayroq" ordenini topshirgan. U ko'plar qatori gitlerchilar istehkomi-Reyxstag devorlariga nayza tig'i bilan yozuv bitdi: "B.Omonov Surxondaryolik paxtakori. Termiz-Berlin"¹. B. Omonov 1946-yilda ona yurtiga, Bobotog'ga qaytadi². B. Omonovning qizi O'g'iloy Omonovning yozishiga qaraganda o'sha vaqtda urushga Bobotog'dan jami bo'lib 29 nafar qirchillama yigit ketgan bo'lib shulardan 2 tasi o'z oilasi bag'riga sog'-salomat qaytgan ekanlar³. Urushdan qaytib 5 kun dam olganidan so'ng, uni rayon ijroiya qo'mitasi bo'lim mudirligiga tayinlashadi. Biroq shunday og'ir sharoitda salqin xonaga qamalib ishlashni u o'ziga ravo ko'rmaydi va kolxozga ishlashga yuborishlarini so'rab ariza yozadi. Shunday qilib Omonov Chkalov nomidagi partiya qo'mitasi kotibi va xosilot sovetining raisiga aylanadi. Uning raxbarlik ilmidan bexabarligi bois u kishini Samarqand shahriga – kolxoz rahbarlarini tayyorlash kursiga o'qishga yuboradilar. Bir yillik o'qish tugagach Omonovni Ckalov nomidagi kolxoz boshqaruvi raisligiga saylashadi. Shu tariqa 1948-yildan xo'jalik rahbari sifatida faoliyat yuritadi. O'sha vaqtda u 31 yoshda bo'lgan. 1955-yilga kelib Omonov rahbarlik qilayotgan kolxozlar soni 11 taga yetadi. Omonov boboning ishni to'g'ri tasahkil qilishi, odamlar bilan to'g'ri muomalani yo'lga qo'yganligi va jonkuyarligi sharofati ila kolxozning viloyatdagi salmog'i yildan yilga oshib brogan. Mana shunday muvaffaqiyatlar sharofati bilan 1956-yili Bobomurod Omonov "Sotsialistik Mehnat Qahramoni" yuksak unvoni bilan taqdirlangan. 1959-yilda 36 ta mayda kolxoz birlashtirilib, "Kommunizm" kolxozi tashkil

¹ Mengziyo Safarov. Davr farzandi ocherkidan. T. 2010. 7-b.

² O'g'iloy Omonova. O'z davrining faxri va qurboni. T. Istiqlol. 2015. 6-b.

³ O'sha asar, o'sha joyga qarang.



etiladi va B. Omonov unga rais qilib saylandi. Omonov bobo faoliyat yuritayotgan kolxoz har tomonlama yuksalib, rivojlanib boradi. Buni ko'rgan rahbarlar Omonov rahbarlik qilyotgan xo'jalikni yanada kengaytirishni, ya'ni boshqa rivojlanishi past bolgan sovxozlarni ham Omonov rahbarligiga topshirishni davr talabi deb biladilar. Shu munosabat bilan 1980-yilda "Kommunizm" kolxozi sovxozga aylantirildi va 4 ta kichik sovxoz asosida jami 8 ta sovxoz asosida "Kommunizm" agrasanoat birlashmasi tashkil etiladi. Omonov boboni birlashma bosh derektori va "Kommunizm" sovxoz direktori lavozimiga tayinlashadi⁴. 1984-yil 23-iyunda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Kometetining mashhur XVI plenumida Respublikamiz Kompartiyasi Markaziy kometetining birinchi sekretari Usmonxo'jayev maruzasida barcha viloyatlarda jinoyatkorona ish uslubi mavjud deya tan olindi va ularni shavqatsiz ravishda fosh qilish zarurligi uqtirib o'tildi.

Xalq uchun shuncha jonini kuydirib, jon fido qilib ishlagan kadr qanday qilib xalq mulkiga ko'z olaytirishi mumkin, hattoki kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay ishlaydigan odam qanday qilib davlat mulkiga xiyonat qilishi mumkin, bir o'ykab ko'ringga. Qizlari O'g'iloy Omonovning aytishlariga qaraganda Bobo kunduzgi vaqtda faqat ish bilan mashg'ul bo'lgan, kechki vaqt esa 21:00 da Moskva televedeniyasidan ko'rsatiladiga "Врѐмя" (Vaqt) axborot dasturidan keyin to yarim tungacha oddiy xalqning arz-shikoyatlarini qabul qilar ekan. Bu degani jonini jabborga berib ishlaydiga rahbar kadr bo'lganligidan darakdir. B. Omonov qandli diabed kasaliga chalingan bo'lib doimiy shifokorlar nazoratida bo'ladi va shu sababli goh Toshkentga, goh Dushanbega shifokor

ko'rigiga borib kelib turgan. Shunday kunlarning birida 1986-yil 26-may kuni Dushanbedan qaytib kelayotganida Omonob bobo mingan mashina yo'lini to'sib to'xtatishadi. Undan tushgan notanish kishilar obkomga zudlik bilan yetib borish kerakligini aytishadi. Notanish mashina Omonovni obkomga emas balki Termiz qamoqxonasiga olib boradi. Hibsga olinganidan keyin uch kun o'tib, qizi O'g'iloy Omonova va Boboning quroldosh do'sti Ergash Odinayevlar Moskvaga yo'l oladi. Ular dastavval KPSS Markaziy Kometetiga borib ariza topshiradi. Lekin u yerda ariza topshiraman, adolat topaman deb navbat kutib turganlarning adog'i yo'q edi. Bularni ko'rib O'g'iloy Omonovning bor orzu-hayollari puchga aylanishini o'ylab yig'lab yuboradi. Ular yana SSSR bosh prakuraturasiga, Mudofaa vazirligiga borib ariza topshiradilar. Urush veteranlari soveti binosiga kirib borganida qiziq voqea guvohi bo'ladi. Ularning O'zbekistondan ekanligini bilibq ularning ustiga tashlaniushadi: "Ozbekistonliklarning katta-yu kichigi poraxo'r, o'g'ri", "Moskva tartib o'rnatib bermasa, tinchimaysanlar!", "Buturlin prakuror bo'lib ketdi, ochiqda qolgan o'zbeklarni ham bitta-bittalab qamoqqa tiqadi!", degan gaplarni aytishadi. Xullas ularning bor umidlari ham puchga aylanadi. O'g'iloy Omonova O'zbekistonga qaytganidan so'ng otasi bilan uchrashishga izn so'rab tergovchi Kazbek Bitarov bilan uchrashadi. Uchrashuvda Bitarov O'g'iloy opaga Moskvaga borib shikoyat ariza yozgan ekanligini va u arizalar uning o'ziga qaytib kelganini aytib ularni ko'rsatadi. Mana adolat qayerda yotibdi deng. Jabrlanganlar ne ne umidlar bilan sarsonu sargardon bo'lib Moskvaga borib shikoyat arizalar yozsayu, ammo ularni hibsga olgan, Omonovni tergov qilayotgan Sariosiyodagi tergovchining qo'lga yuborsa, ham ko'rib ham eshitib

⁴ O'g'iloy Omonova. O'z davrining faxri va qurboni. T. Istiqol. 2015. 10-b.



xo'rliging kelar ekan. O'g'iloy Omonovning aytishlariga qaraganda o'shanda Bitarov O'zinini muloyim ko'rsatib, hamdardlik bildirgan ohangda O'g'iloy opaning qulog'iga shivirlaydi: Otangni qutqarishning bitta yo'li bor. Shunda O'g'iloy opaning ko'zlari katta-katta ochilib umid uchquni ilinjida qanday yo'li bor ekan degan ohangda Bitarovga yuzlanadi. Yo'lini ayting tergovchi deganida, olti million to'lasalaring yetadi deydi Bitarov. Bundan chiqdi arqon tortilganda aybdor ham, aybsiz ham bir xir xil bo'lib qolar ekanda. Bordiyu B. Omonov rais bo'lib ishlab yurgan kezlarda davlatning, xalqning mol-mulkini o'marib kassa qilib tashlaganda edi. O'sha vaqtda olti millionni berib qamoqdan qutulib ketsa bo'lar edi. Lekin Omonov bobo unday ish qilmagan, doimo halol bo'lib ishlab kelgan, xalqning rizqiga, davlatning mulkiga ko'z olaytirgan shaxs emaslar. Respublikamizni tartibga solish maqsadida tashlangan desantboshi Gdlyan va Ivanov tomonidan kashf qilingan "qo'lga olib tergovga tortilgan har qanday fuqaroni jinoyatchiga chiqarish mumkin" degan g'oya asosida ish ko'rilar ekan.

B. Omonov singari yuzlab, minglab paxtakorlarni aybdorga aylantirish o'sha mash'um XVI plenumdan boshlangan edi. 1985-yil iyunida chaqirilgan O'zbekiston KP Suxondaryo oblast partiya kometeti byuro majlisi ham XVI plenum ruhida o'tgandi. Yani "hech kimga Shafqat yo'q, uzoq yillar raxbarlik qildingmi, bas, jinoyatchisan! Pora olgansan, qo'shib yozgansan, davlatga behisob zarar yetkazgansan", qabili ostida o'tgan. Omonov rahbarlik qilgan "Kommunizm" agro-sanoat birlasjmasida 25 ming aholi yashagan. Shu birlashmada 35 yil yil mobaynida agranom vazifasida ishlab kelgan bir agranom bilan Boboning orasi buziladi. U agranom xizmat vazifasidan ozod etiladi. Uning ismi Fatto Muhammadiyev. U 8

kishi bo'lib B. Omonovni ustidan yuqoriga yozishadi⁵. Mazkur guruh tomonidan yozilgan shikoyat xati asosida xalq kontroli kometeti o'tkazgan taftish chog'ida B. Omonovning suruv-suruv podasi bor degan, bundan tashqari, bosh direktorlik lavozimidan foydalangan xolda sovxozga qarashli GAZ-24 "Volga" avtomashinasi korpusini o'zlashtirgan, "GAZ-69" markali avtomashinani qarindoshi Sh. Eshboltayevga hadya etib yuborgan degan ayblar o'z isbotini topmaydi. Viloyat partiya kometeti plenumi esa ayni shu taftish natijalaridan emas, balki shu shikoyatnomadan kelib chiqadi va B. omonovni vazifasidan ozod qiladi. Oblast partiya konferensiyasida so'zga chiqqan oblast prokurori N. Maslennikov B. Omonovga kutilmagan zarba beradi. U yuqorida tasdig'ini topmagan uchala tuxmatdan ko'ra og'irroq ayblovchi so'zlarni aytib yuboradi. Ya'ni "Kommunizm" sovxozida davlat planlarini bajarish chog'ida ko'zbo'yamachilik qilingan, qo'shib yozishlarga yo'l qo'yilgan deydi. Martabali qonun qo'riqchisi tomonidan bunday so'zlar rasman aytilishi nechog'li yoqimsiz va og'irligi alohida mavzu, lekin qanday bo'lmasin B. Omonovdan biror jiddiyroq ayb va nuqson topishga kirishilgani xavotirli edi. Tabiiy savol tug'iladi: viloyatprokurori qaysi hujjatlar yoki dalillar asosida elon qildi bunday ayblovni?

Yuqorida Omonovga qo'yilgan to'rtta ayblov ham o'z isbotini topmadi. Birinchidan turli idoralarga yo'llangan shikoyatnomalarda B. Omonovning suruv-suruv podasi borligi yozilgandi. O'tkazilgan birinchi taftishdayoq bu ma'lumot o'z tasdig'ini topmadi. Boshqa hech bir o'rinda bu bo'xtan axborot qaytib tilga olinmadi. Ikkinchidan xo'jalik balansidan xususiylashtirilgan GAZ- 24 "Volga" avtomashina korpusini Omonov

⁵ "Yosh kuch" jurnali. 1989-yil. 10-son.



shaxsiy ehtiyojlariga ishlatib yubormagan, balki uni tekshir-tekshirlar boshlanmasidan ilgariyoq o'z ixtiyori bilan qanday olingan bo'lsa shundayligicha kolxozga qaytargan. Uchinchidan- Xo'jalikka qarashli "GAZ-69" markali avtomashinasi SH. Eshboltayevga hadya etilgani xususida. Sh. Eshboltayev xo'jalikda 1965-yildan buyon ishlagan, zavoddan 1959-yildan ishlab chiqarilga, obdon xizmatini o'tab bo'gan "GAZ-69" unga hadya etilmagan, balki yarim narxiga sotilgan. Ayblov e'lon qiingan vaqtda bu avtomashina allaqachon yaroqsiz holga kelgandi. To'rtinchida- viloyat prokurori avval elon qilib, so'ng unig tasdig'ini topishga harakat qilgan "Qo'shib yozish" va "Ko'zbo'yamachilik" xususida. Bular avval ayblab keyin shu xususda tergov qilishar edi. Asosiy ayblov 1982-yil paxta yig'im terimidan boshlandi. 1982-yil kuz ob-havosi og'ir keldi. Respublika paxtakorlari 6 million tonnalik xirmonni uddalashi qiyin bo'lib qoldi. Bu qiyinchilikdan "Kommunizm" agro-sanoat ishchi dehqonlari ham chetda qolishmadi. Yillik reja 85 foizga bajarildi, terim to'xtadi qo'ydi. Chunki dalada yetishtirilgan hosilning cho'g'i shundan ortig'iga yetmadi. Biroq yil yakunida xo'jalik paxta rejasini 100,48 foiz bilan uddaladi. B. Omonov boshchiligidagi jami 10 nafar ayblanuvchilar ustidan ochilgan mana shu 85 va 100,48 raqmlari orasida vujudga kelgan 15,48 foiz xosildan kelib chiqqan edi.

Beshinchi ayblov esa ayblov hukmidagi eng og'ir jinoyat sifatida zikr etildi: "Kommunizm" sovxozo boshqa xo'jalik dalalardan terib olingan hosilni "paxta" zavodlari va punktlaridan naqd pul evaziga pora berish yo'li bilan sotib olingan paxta sovxoz planiga qo'shib yozildi" deb. Aslida voqea qanday bo'lganidan bexabar odam ayblov hukmidagi bunday so'zlarni o'qisa hech ikkilanmay jinoyat yuz berganini

tasdiqlashdan boshqa iloji qolmaydi. Shuning uchun xulosa chiqarishga shoshilmasdan B. Omonovning sud jaryonidagi ko'rsatmasiga quloq tutishni joiz deb bilaman. B. Omonov: "Obkom sekretari A. Karimov ko'rsatmasi bilan raykomda yig'lish o'tkazilib Viloyatdagi Lenin va Sherobod rayonlari xo'jaliklarida terib ulgurilmagan hosilni terib olish uchun hasharchilar jo'natishga qaror qilindi. 5 noyabr oqshom men sovxoz faollarini to'plab opkom sekretari va raykom qarorini aytdim. Hasharchilarnig cho'lga borish ishlarining mas'uliyatini muovining A.Ikromovga yukladim. U ertasiyoq hasharchilar bilan cho'l xo'jaliklariga jo'nab ketdi. Shundan so'ng yuragim xuruji tutib Sharg'undagi kasalxonada yotib qoldim. 15 noyabr kuni kasalxona vrachi Nazarov telefonga -A.Karimov chaqirayotganini aytdi. Bordim. U kishi holl-ahvol so'ragach, kasalxonadan bir kunga chiqib cho'ldagi xo'jaliklarga borishimga va yig'ilgan hosilni sovxoz hisobiga o'tkazish masalasini hal qilishimga ko'rsatma berdi. Bosh vrach 4 soatga ruxsat berdi. Men o'rinbosarim A.Ikromov va partkom sekretari M.Mallayev bilan Lenin yo'li rayoniga bordim. U yerda bizni raykom sekretari R.Ergashev bilan rayon sekretari X.Xoliyorov kutib olishdi. Ular A. Karimovning ko'rsatmasidan xabardor ekan, o'zaro kelishilgach, o'rnimga A.Ikromovni qoldirdim. Sherobod rayonida esa M.Mallayevni qoldirib, Sharg'unga kasalxonaga qaytdim. O'sha kuni yurak xuruji qaytalandi. Ertasiga Toshkentga-1-stasionar kasalxonasiga olib kelishdi. 21-noyabrda meni ko'rgani kelgan Sariosiyo rayon ijroiya kometetining raisi Nomozov bilan A.Ikromov terimning borishi haqida gapirishdi. Nomozov, I.Karimov ikki rayon aholisi xo'jalikka, ya'ni "Kommunizm" sovxoz uchun hashar yo'li bilan paxta terib berishni topshirganini aytdi. Men bunga rozilik bermadim va ular terib beradigan paxta bizga



zarur emas dedim. “Opkom sekretarining topshirog’i-ya!” dedi Nomozov. “Bo’lmasa, Karimov bilganini qilsin” dedim. Toshkentda 22-dekabrgacha davolandidim. Shundan so’nggina uyga qaytdim”,⁶ deydi B.Omonov.

Mana bo’lgan voqea. Hosili terilmagan yerda qolib ketayotgan xo’jalikka safarbarlikni kim tashkil qildi? Kim bu tashabbusning yuqorida turdi? Hatto Cho’l xo’jaliklari paxtasini terib ”kommunizm” hisobiga o’tkazishi haqida kim ko’rsarma bermoqda?..

Ming afsuski, juda-juda oddiy va masalaga oydinlik kiritish mutlaqo qiyin bo’lmagan bu kabi savollarni beradigan birorta xolis niyatli inson topilmadi o’sha jarayonda!

Birinchi reviziya materiallari sudda o’z tasdig’ini topmagach, ish yana tergovga qaytariladi. Hisobchi Hazratqul Hasanovning so’zlariga qaraganda tergov 1986-yilning 26-noyabr kuni tugagan.

Sud jarayoni ketayotgan kunlarning birida Omonovning qizi O’g’iloy Omonova sud binosiga borib zaldagi elonlarni o’qib turganida uning qulog’iga behosdan ichkaridan sud raisi Raxmonovni ovozini eshitib qoladi. Chamasi sudya Toshkentdagi yuqori lavozimdagi kimdir bilan gaplashayotgan edi. Shunda Raxmonovning, “nima qilay, axir, bironta aybi ham tasdiqlanmayapdi. Xalq uni chaqirib yuborishni talab qilyapdi”, degan gaplarini o’z qulog’i bilan eshitib qoladi⁷. Mana ko’ryapsizlarmi ularning maqsadi nohaq ayblab, tuxmat qilib turmaga tiqish bo’lgan.

⁶ O’g’iloy Omonova. O’z davrining faxri va qurboni. T. Istiqlol. 2015. 30-b.

⁷ O’g’iloy Omonova. O’z davrining faxri va qurboni. T. Istiqlol. 2015. 42-b.

Raxmonov yuqoridan qanday qilib ham bo’lmasin B.Omonovni qamoqdan chiqarmaslik haqida ko’rsatma olgan edi.

Bundan ko’rinib turibdiki bu muttahamlar har xil tuhmatlar qo’yib B.Omonovni va boshqalarni ayblaganlar. Bular birmas yuzmas, minglab begunoh insonlarning yostig’ini quritganlar. Qonunni o’z bilganlaricha o’zlarining foydasiga yo’naltirganlar. Tergov jarayonida qonunga zid bo’lgan qiynoq, do’pposlash va psixologik tazyiq o’tkazishlardan foydalanishgan.

O’n oy davom etgan sud nihoyasiga yetdi. Sudlov jarayonlarida 415 nafar so’roqning ko’rgazmasi tinglandi. 10 nafar ayblanuvchi aybsiz deb topildi. Sudda xalq talabiga ko’ra B.Omonovga so’zlash huquqi berildi: “Odamlar, sizga ming rahmat. Mana, oldingizda yuzim yorug’, sizlar bilan yuzmayuz, bo’lish uchun turmaning barcha azoblariga bardosh berdim. Muzdek sovuq xonalarda muzlab o’tirdim, havosi so’rib olingan kameralarda suv oqish uchun tushirib qo’yilgan kraynikka og’zimni qo’yib nafas oldim. Xalqim, sizlarning oldingizda beaybligimni isbotlash uchun jon saqladim, - deb so’zlaganda ko’plar yig’lab yubordi. “Mana ko’rdingiz, guvohi bo’ldingiz, meni xalqim oqladi, meni turmaga solib o’tirmasdan osasizmi, otasizmi-hukmingizdaman. Sizlarga jonim kerak shekilli, boshqa shikoyatim ham, gapim ham yo’q”⁸, deb so’zini tugatdi. Sud mantiqiy poyoniga yetdi. Yig’ilganlarning barchasi B.Omonovni o’sha kunning o’zidayoq ozodlikka chiqaradi deb o’ylagandi. Lekin sud raisi B.Omonovni oqlovini rasmiylashtirib ertaga ozodlikka chiqarishini hamma tushuntirishadi. Lekin o’sha kuni 1987-yili 22-oktabr tunda B.Omonov sovuq

⁸ Q.Egamberdiyeva. Chinorga aylangan umr. T. Tafakkur. 2014. 19-20-betlar.



kamera, daxshatli azoblar-u daxshatlar natijasida xuruj qilib 70 yoshida olamdan o'tadi.

Ehtimol, revizor Mavlonov tufayli sud cho'zilmaganda edi, ayanchli hodisa yuz bermasidi", degan edi bergan interyusida Amrullo Raxmonov. Amrullo Raxmonov o'sha vaqtda sudya edi. U B.Omonovning aybsizligini bilardi, ammo Yuqoridagi qora niyatli xabarlar uni B.Omonovni ozodlikka chiqarishiga hech izn bermas edi. U to'la vijdon azobida edi. Nemis Fashistlari bilan bo'lgan janglarda taslim nimaligini bilmagan Bobo o'z yurtida muttaham "qonunshunoslarning qo'lida qurbon bo'ldi. Ochig'i tuhmat qurboni bo'ldi.

Mahbuslar o'limidan so'nggina oqlandi. Tirikligida ularga quloq soladigan kimsa topilmadi. Ulardan faqatgina qamoqxonalarda yozilgan nidolari va ohlari: "Bizni tuhmat balosidan asrang, Qutqaring!". kabi so'zlari qolgan.

B.Omonovning 8 ta farzandi, 6 ta qiz, 2 ta o'g'li bor. Nihoyat, O'zbekiston Respublikasi prokuraturasidan 1992-yil 31-yanvar kuni B.Omonovning turmush o'rtog'I Amonova Favziya nomiga javob xati keladi. (№15/ 1103-84 raqamli). Unda "Sizni eringiz B.Omonov va boshqalarning jinoyat ishi Respublika Prokuraturasida o'rganilib chiqildi. B.Omonovni aybini tasdiqlovchi qo'shimcha dalil va isbotlar bo'lmaganligi sababli, 1991-yil dekabr oyini 24-kunida unga nisbatan jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Prodsessual Kodeksining 175 moddasini 2 qismi bilan bekor qilindi", degan mazmunda xat keladi.

Mana ko'ryapsizmi Omonov va u bilan birga ayblanganlar mutlaqo aybsiz bo'lsada Sho'rolar zamonida to'la oqlanmadi. Faqatgina Mustaqillimiz sharofati ila oqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mengziyo Safarov. Davr farzandi ocherkidan. T. 2010. 7-b.
- 2.O'g'ilo'v Omonova. O'z davrining faxri va qurboni. T. Istiqlol. 2015. 6-b.
3. "Yosh kuch" jurnali. 1989-yil. 10-son.
- 4.Q.Egamberdiyeva. Chinorga aylangan umr. T. Tafakkur. 2014. 19-20-betlar.
- 5.Raxmonov.R. Ubaydullayev.Sh. "Yorug' yuzli o'zbekim". "Sovet O'zbekistoni" gazetasi.
- 6.X.Юнусова Ўзбекистонда пахта иши қатағонлари ва унинг оқибатлари. Тошкент-2012.
- 7.Боффа Дж. От СССР к России: История неоконченного кризиса. 1964-1994. - М.,1996.
- 8.Никонова С.И. Государственная политика в области идеологии и культуры в кон- тексте советской действительности (середина 60-х - середина 80-х годов XX века). Автореф. д.и.н. - Казань, 2009. С.23.
- 9.Qarang: Xalq hakikatni bilmog'i zarur. SSSR T.Gdlyan boshliq tergov gruppasi faoliyati bilan bog'liq maternallarni tekshirish yuzasidan SSSR Xalq deputatlari s'ezdi komissiyasi a'zolari "Qishloq haqiqati" muxbiri savollariga javob beradi // Toshkent haqiqati 1990,3 fevral.
- 10.История России. XX век. - М.: АСТ, 2000.
- 11.«Sovet O'zbekistoni» gazetasi, 1987-yil 16-fevral.